



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLİSH: YANGI
PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR
FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Abdullayeva Gulsanam Abdulhamid qizi,

Nurullaeva Shahzoda Boymurod qizi
Sulaymonova Hosiyat Salaydin qizi

SamDU Kattaqo'rg'on filiali talabalari

MAKTABGACHA TA'LIMDA INKLYUZIV TA'LIM TIZIMI

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada mamlakatimizda joriy qilinayotgan yangi ta'lismi tizimi ya'ni inklyuziv ta'lismi tizimining takomillashuvi, va bu ta'lismi maktabgacha ta'lismi tashkilotlarida ham joriy qilinganligi, inklyuziv ta'lismi tizimini rivojlantirish maqsadida yangi qaror va farmonlar qabul qilinib, vazifalar yuklatilganligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ta'lismi, tarbiya, inklyuziv, rivojlanish, takomillashuv, harakat

Kirish. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi 46-sessiyasidagi nutqida strategik yo'nalishlar, jumladan, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Butun dunyoda qariyb 1 milliardga yaqin nogironligi bo'lgan shaxslar borligi haqida o'ylab, fikr yuritsak, bu nihoyatda ahamiyatli tashabbus ekaniga amin bo'lamiz.

Ushbu tashabbus mazmun-mohiyati haqida targ'ibot ishlarini izchil yo'lga qo'yish, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish masalalarida parlament nazoratini kuchaytirish dolzarb vazifalar hisoblanadi. Parlament Qonunchilik palatasida O'zXDP fraksiyasi va Mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasi hamkorligida o'tkazilgan davra suhbatida bu haqda deputatlar, nogironligi bo'lgan shaxslar manfaatlarini himoya qiladigan tashkilotlar mutasaddilari va mutaxassislari bu borada ko'plab fikr va takliflarni bildirishdi.



Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish katta va ko‘plab omillarga bog‘liq soha. Shuning uchun bugun uning aynan bitta yo‘nalishi – inklyuziv ta’limga batafsilroq to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Inklyuziv ta’lim va tarbiya-bolalarning alohida ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojlarni hamda individual imkoniyatlarni hisobga olgan holda ta’lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlarni ta’minlaydigan jarayon hisoblanadi. Inklyuziv ta’lim rasmiy ta’lim tushunchasidan ancha kengroq. Bu ta’limda ko‘proq ta’lim-tarbiya olishda, o‘qishda, o‘rganishda sog’lom bolalar orasida imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlanadi.

Ta’lim tizimining birinchi bo‘g’ini hamda bolajonlar uchun ijtimoiy sohaning ilk pog’onalardan biri mактабгача ta’lim sohasini hisoblanadi. Demak yuqorida ta’rifi keltirilgan inklyuziv ta’lim tushunchasining amaliy namoyondasi sifatida uning amalga tatbiq qilinishini mактабгача ta’lim tashkilotlaridan boshlash lozim.

Bugungi kundagi inklyuziv ta’lim: Bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonining ilk bosqichi hisoblangan mактабгача ta’lim sohasini rivojlantirishga davlat miqyosida keng e’tibor qaratilmoqda. Shunday ekan mактабгача yoshdagи bolalarda aqliy, jismoniy, fiziologik, biologik va psixologik jihatdan rivojlanishining dastlabki omillari shakllantirilib boriladi. Ilk va mактабгача yoshdagи bolalar orasida ham alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni ko‘rishimiz mumkin. Bunday bolalarga esa o‘z tengqurlari bilan birgalikda ta’lim-tarbiya olishlari uchun mактабгача ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Ammo mактабгача ta’lim tashkilotida inklyuziv ta’limni joriy qilishda bunday ta’limga muhtoj bo‘lgan bolalarning barchasini ham qamrab olmaslik kerak. Ma’lumki jamiyatimizda aqliy jihatdan sog’lom lekin ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan, eshitishida nuqsoni bo‘lgan yoki jismoniy jihatdan rivojlanishdan ortda qolgan bolalar ham uchrab turadi. Inklyuziv ta’limni amalga oshirishda bolaning psixologik va aqliy rivojlanganligi muhim ahamiyatga ega. Zero, aqliy intelekti joyida lekin jismoniy rivojlanishdan ortda qogan bolalar ta’lim jarayonidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtira olishlari mumkin. Shunday ekan mактабгача ta’lim tashkilotida bunday bolalarni sog’lom bolalar orasida ta’lim-tarbiya jarayoniga jalb qilish orqali samarali natijaga erishishimiz mumkin. Mактабгача ta’lim tashkilotida yosh murg’ak qalbli bolajonlarga ta’lim berish bilan bir qatorda tarbiyaning bir qancha turlari ham shakllantirilib boriladi. Alohida ehtiyojga muhtoj bo‘lgan bolalarga o‘z nomi bilan ularga yon-atrofdagilarning ko‘magi kerak bo‘ladi. Demak sog’lom bolalar o‘z guruhlarida tarbiyalanayotgan alohida e’tiborga muhtoj bolalarga har qanday vaziyatda qo‘lidan kelgancha yordam berishlari, amaliy ko‘maklashishlari muhim ahamiyatga ega. Bunday paytda tarbiyachining mahorati juda muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayonda sog’lom bolalarning ongida alohida e’tiborga muhtoj bolalarga to‘g’ri munosabatda bo‘lishga, ularni o‘zlarini bilan teng huquqlilikda ta’lim olish huquqiga ega ekanliklari haqida hamda do’stlashish, yordamga muhtojlarga mehr ko‘rsatish, ko‘mak berish kabi bir qator ma’naviy-ahloqiy sifatlarning ilk bosqichlari shakllanishini ta’kidlash joiz.



Demak, Inklyuziv ta’lim targ’ib etilgan maktabgacha ta’lim tashkilotida pedagog tarbiyachi qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerak? Inklyuziv ta’limda tarbiyachining kasbiy mahorati bosh omil hisoblanadi. Avvalo pedagog tarbiyachi inklyuziv tafakkurga ega bo‘lishi va ta’lim sifati mas’uliyatini o‘z zimmasiga olishi, shuningdek tarbiyalanuvchilar turli toifada ekanligiga qaramay barcha bolalarning huquqini himoya va hurmat qilishi shart. Inklyuziv ta’lim-barcha bolalar uchun maxsus ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliliginini inobatga olgan holda ta’lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta’minlaydigan jarayon. Bundan ko‘rinib turibdiki ushbu ta’limni amalga oshirish pedagog tarbiyachidan anchagina mahorat talab etadi.

Ma’lumki, inklyuziv ta’limda maxsus ta’lim ehtiyojidagi bolalar barcha bolalar bilan birga ma’lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida sog’lom bolalar orasida ta’lim olayotgan bolalar uchun maxsus variativ va alternativ dasturlari ishlab chiqilishi kerak. Chunki bunday bolalarga sog’lom bolalardan farqli o‘laroq alohida e’tibor hamda ta’limning ham alohida ko‘rinishi amalga oshirilishi talab etiladi. Inklyuziv ta’lim-barcha bolalar uchun maxsus ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliliginini inobatga olgan holda ta’lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta’minalash orqali tashkil etiladi.

Bu ta’lim bir tomonlama bo‘lmasligi kerak, ya’ni bunda ota-onalar bilan hamkorlik masalasi alohida o‘rin tutadi. Ushbu fikrning amaliy na’munasi sifatida imkoniyati cheklangan bolada sifatli ta’limni o‘zlashtirish, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish, ko‘nikma va qobiliyatini rivojlantirish, yoshligidan o‘rganishni rag‘batlantirishda oila ishtirokini ta’minalash o‘rinli bo‘ladi. Inklyuziv ta’lim jarayonida ota-onalar bilan ishslash ham muhim. Ta’kidlash joizki, alohida ehtiyojli ota-onalarga ularning farzandlari jamiyatning bir bo‘lagi bo‘lish huquqiga ega ekanini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga yetkazish kerak. Mamlakatimiz ta’lim tizimida bu masalaga alohida e’tibor qaratiladi. 2020-yil oktyabrda qabul qilingan Prezidentimizning alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori bunga misol bo‘la oladi.

Kutiladigan natija

2020–2025 yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasiga O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha quyidagi asosiy ustuvor vazifalarni nazarda tutadi:

—alohida ta’limga muhtoj bolalar o‘qiydigan ta’lim muassasalarini binolariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

—ushbu ta’lim muassasalarini zarur adabiyotlar, o‘quv qurollari, turli kasblar bo‘yicha o‘qitish uchun moddiy-texnik baza va jihozlar bilan ta’minalashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

—inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, ta’lim muassasalarini maxsus asbob-uskunalar bilan (yuk ko‘tarish moslamalari, panduslar, panjara va boshqalar),



shuningdek, tegishli xodimlar bilan ta'minlash (maxsus o'qituvchilar, bolalarni psixologik-pedagogik nazorat qilish bo'yicha mutaxassislar);

—alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning moslashuvi va integratsiyalashuvi uchun maktab-internatlarni maxsus jihozlar bilan bosqichma-bosqich ta'minlash va boshqalar.

Qaror bilan umumiylar ta'lim muassasalarida alohida ta'limga muhtoj bolalarni inklyuziv o'qitish to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. U quyidagilarni nazarda tutadi:

—inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari;

—maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tuzatish sinflarini tashkil etish tartibi va alohida ta'limga muhtoj bolalar uchun o'quv jarayoni;

—bolalarni inklyuziv ta'lim va boshlang'ich asosiy tuzatish sinflariga qabul qilish tartibi;

—inklyuziv ta'lim va boshlang'ich asosiy tuzatish sinflarida ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar.

Bundan tashqari: jismoniy, aqliy, hissiy yoki aqliy nuqsonli bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari;

sanatoriyy-kurort tipidagi ixtisoslashtirilgan ta'lim davlat muassasalari;

jismoniy, aqliy, sezgi yoki aqliy nuqsonli bolalar, shuningdek, uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun yakka tartibda uyda ta'lim olish tartibi to'g'risidagi nizom ham tasdiqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O`zbekiston Respublikasining Talim to`g'risidagi qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan). Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent: O`zbekiston. 1997.

2.“Alovida yordamga muhtoj bolalarni manaviy va estetik rivojlantirish mavzusidagi ilmiy-nazariy konferensiya materiallari.Toshkent-Uzinkomsentr-2002 yil.

3.Aminova V.Yu. Integrirovannoye obrazovaniye dlya detey s osobymi nujdamni v doshkolnyx i shkolnyx uchrezdeniyax massovogo tipa (Metodicheskiye rekomendatsii) MNO RTsO Resursno'y sentr YuNESKO Tashkent 2002

4.“Dakarskiye ramki deystviy”- YuNESKO-2000 yil. Fransiyada chop etilgan. Kisllitsina I.K. «Inklyuzivnoye obrazovaniye-obrazovaniye dlya vsex»(osnovnyye ponyatiya i kratkiy obzor mejdunarodnogo opyta) sozdano pri podderjke Yevropeyskogo Soyuza. Tashkent, 2004

5.Ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limi. Tuzuvchi Grigoryants «Inklyuziv ta'lim» muvaqqat Nizomi. 2005 yil.

6.Imkoniyati chyeklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish togrisida muvaqqat NIZOM. O`RXTV T.,19 syentyabr, 2005.

7.“Maktablar hamma uchun- Bolalarni qutqaring jamgarmasi -2002 yil.

8.“Maktablarin olqishlab-inklyuziv maktablardagi nogiron oquvchilar-YuNESKO - 1999 yil.

9.Yuneskoning 2003 yil Ozbekistonda 2-4 oktyabr kunlaridagi «Inklyuziv talim» ga oid seminarii xujjatlari.